

YETTI IQLIM SOHIBQIRONINING JAHON TARIXIDA TUTGAN O`RNI VA ROLI

Bozorov Xumoyun Yusuf o`g`li

Shahrisabz tumani 31-maktab 11-sinf o`quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV-XV asrlarga oid tarixiy qo`lyozmalar va Yevropa tillarida mavjud manbalar va maxsus adabiyotlardan olingan ishonchli dasturiy ma`lumotlar asosida dunyo xalqlari va o`rta asrlar Sharqi tarixida o`chmas iz qoldirgan bu ulug` shaxsning o`sha davrda o`tgan murakkab va serqirra hayoti va faoliyati bilan bog`liq ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar bayon qilingan. Bu maqolada nafaqat tarixiy voqealar, balki urf-odatlar, udumlar, xalq marosimlari, turfa bayramlar, maishiy lavhalar, xalqa o`yinlari, harbiy yurishlar va jang-u jadallar ham haqqoniy va hayratlanarli yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Buyuk Temur, Temur tuzuklari, adolatli tamoyillar, diplomatiya.

Annotation: This article, based on reliable programmatic information derived from historical manuscripts of the 14th-15th centuries, as well as sources and specialized literature available in European languages, describes the complex and multifaceted life and activities of this great figure, who left an indelible mark on the history of the peoples of the world and the medieval East. The article highlights not only historical events but also traditions, customs, folk ceremonies, diverse festivals, everyday scenes, folk games, military campaigns, and battles in an authentic and fascinating manner.

Keywords: Great Timur, Timur's Code, principles of justice, diplomacy.

Аннотация: В данной статье, основываясь на достоверных программных данных, взятых из исторических рукописей XIV-XV веков, а также из источников и специализированной литературы на европейских языках, описывается сложная и многогранная жизнь и деятельность этой великой личности, оставившей неизгладимый след в истории народов мира и средневекового Востока. В статье освещаются не только исторические события, но и традиции, обычаи, народные обряды, разнообразные праздники, бытовые сцены, народные игры, военные походы и сражения, представленные правдиво и увлекательно.

Ключевые слова: Великий Тимур, Тимуровы уложения, принципы справедливости, дипломатия.

O`zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, rivojlanish bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini barqaror izga solish va rivojlantirish bo`yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yangilanayotgan O`zbekistonda tarix fanida ham

ajdodlarimiz tarixini o'rganish, ularga to'g'ri va xolis baho berish, shu asosida milliy qadriyatlarimizni tiklash o'zining yangicha bosqichiga ko'tarildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor". O'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi - Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o'lkamizning, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume'tirof etilgan davr sifatida ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qilgan buyuk insondir. Hozir Shahrisabz deb ataluvchi Kesh shahrida, Hisor tog'lari etagida olti yuz sakson sakkiz yil avval ya'ni, 1336-yil 9-aprelda Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoning bo'lajak hukmdori Amir Temur dunyoga keldi. Uning to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul. Yaqin urug'-aymoqlari uni Sohibqiron, ya'ni baxtli yulduz ostida tug'ilgan zot, deb atashardi. Ba'zi bir xalqlar tarixida Temurlang, oqsoq Temur degan laqablar bilan ham mashhur edi. Shuningdek, avliyo darajasiga erishgan Sohibqiron bu qadar ulkan shon-shuhrat tojini qanday qo'lga kiritdi? Millionlar va milliardlar singari hayot ummonida nega izziz yo'qolib ketmadi? O'zining yetmish yillik umrining o'ttiz yilini u harbiy yurishlarda o'tkazdi. Mingta jangda g'alaba qozondi, birortasida talofat ko'rmadi. Faqat o'limgina uni mag'lub eta oldi. Temur 26 ta davlatni zabt etdi. Uning favqulodda ulug'vorligi mana shunda. U Angliya qiroli Richard II va Genrix IV, Farangiston qiroli Karl V, Turk sultoni Boyazid, o'sha davrlarda Rossiyaga hukmronlik qilgan Vasiliy I va Dmitriy Donskoy, shuningdek, Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga zamondosh edi.

Amir Temur yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnodan Amir Temur tulporlarni saraalb ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib borishardi. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar. Shunday qilib, Amir Temur o'z zamonasining o'qimishli va uquvli hukmdorlaridan bo'lib yetishadi. Tibbiyot, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmidan ham yaxshigina xabardor bo'lgan. Amir Temur bilan yuzma-yuz o'tirib suhbatlashishga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning ta'kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o'rgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtira olgan zot ekan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vohasi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan.

XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo'g'uliston xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Mo'g'uliston xoni Tug'luq 1360-1361-yillarda Movarounnahrda birin- ketin ikki marta bostirib kirdi. Movarounnahr beklari birlasha olmay xalqni o'z holiga tashlab ketadilar. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi. 24 yoshli Amir Temur esa boshqacha yo'l tutadi. Temur o'z yurtini mo'g'ullar tajovuzidan himoya qilish uchun ko'p o'ylab, Tug'luq Temurning huzuriga borishga qat'iy ahd qildi. Natijada u Tug'luq Temurning yorlig'i bilan Kesh viloyatining dorug'asi (hokimi) etib tayinlanadi. Shu tariqa, Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Keyinchalik, o'zining bu xatti-harakatini Temurbek aholini mo'g'ullar tomonidan talon-taroj etishdan himoya qilishning yagona yo'li – puxta o'ylangan reja 100 ming kishilik qo'shindan kuchli deb izohladi.

Tarixdagi mashhur janglardan biri "Loy jangi" Ilyosxo'ja va Amir Temur o'rtasida 1365-yil 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'ladi. O'sha kuni esa kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan edi. Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o'z askarlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ladi. So'ng esa u Amir Husaynga qarshi jang qilishni boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi nog'ora va bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog'ora bilan bayroq, musulmonlar odatiga ko'ra, toj-taxt ramzi bo'lib, uni oliy martabali ruhoniyning qo'lidan olish tez orada uning toj-taxt va saltanat egasi bo'lishiga ishora edi. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Ertasi kuni bo'lib o'tgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom(Suriya) ustiga 3 marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda "3 yillik", "5 yillik", va "7 yillik" urushlar nomi bilan mashhur. Uch yillik (1386-1388-y) harbiy istilolar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi. Shundan so'ng Amir Temur butun e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U besh yillik(1392-1396-y) urush davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar vajaloiriylar

sulolasining hukmronligi barham topdi. Amir Temur Hindiston istilosi (1398-yil may-1399-yil mart) qariyb 11 oy davom etdi. Amir Temur Hindistondan katta o'lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytdi. O'ljaning bir qismi qo'shinga taqsimlab berildi, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi. Amir Temurning yetti yillik (1399-1404-y) olib borilgan harbiy yurishlari natijasi Shomning Halab (Aleppo), Xums, Dimishiq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroq Arabning Ubuliston o'lkasi (qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek, Turkiyaning katta qismi zabt etildi. Anqara jangida (1402-yil 20 iyul) Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidn g'alaba qozondi. Amir Temur Usmoniy turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo'lmagan, chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatida ekanligini yaxshi bilar edi. Shuning uchun Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli va Angliya qiroli tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga islom dinini yoymoqchi bo'lgan Usmoniy turklar davlatiga zarba berib, Yevropadagi nasroniylarning xaloskoriga aylangan edi.

Amir Temurning davlat siyosati borasidagi qarashlari ham ancha yuqori bo'lgan. Hozirgi kunga qadar ijtimoiy fanlarda andozaga aylanib ulgurgan bir ibora mavjud. Dunyoda birinchi marta Konstitutsiya g'arb olamida paydo bo'lgan degan tushuncha jahon xalqlari ongi va shioridan mustahkam o'rin olgan. Biz esa tarixiy adolat va haqiqatni tiklash uchun, albatta, rad qilib bo'lmas dalillar, ilmiy-tarixiy manbalar asosida "Nur g'arbdan emas, sharqdan taraladi" g'oyasiga tayanishimiz zarurdir. Bu nurni esa buyuk zot Amir Temur boshlab bergan.

Amir Temurning odilona siyosati va qonunlarining barcha sohalarida adolatli amalga oshirilishi shunday hayratomuz natijalar berdiki, mo'g'ullar bir yuz ellik yil davomida vayronaga aylantirgan Turon yurti sohibqiron hukmronligi zamoniga kelib, qisqa vaqt oralig'ida jahonning barcha sohalarida eng qudratli, iqtisodiy barq urgan, madaniy hayoti yuksalgan, bunyodkorligi bemisl rivojlangan mamlakatga aylandi, agar insonlar erkinligi har tomonlama muhofaza qilinmaganida ijtimoiy guruh va tabaqalar davlat tomonidan rag'batlantirilmaganida edi bunday yuksak taraqqiyotga erishib bo'lmasdi. O'rta asrlar davridayoq Amir Temur hozirgi davr iborasi bilan aytagnda erkin fuqarolik jamiyatiga asos soldi. Amir Temur o'z Vatanini mo'tabarva aziz makon deb bilardi. Shu boisdan umri davomida o'zi uchun kichik hujra ham qurmagan.

Amit Temur o'z davri va zamonasining ko'ra markazlashgan yirik davlatga aos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos xizmat qildi. Amir Temur o'z saltanatida shunday bir tinchlik barqarorlik va osoyishtalikni qaror topdirdiki qonunlarni kundalik hayotda sinash maqsadida bir bola boshiga bir tog'ora tilloni qo'yib mamlakatni

mag`rib-u mashrug`i qadar aylantirib chiqilganida ham bir miri kamaymasdan qaytib kelishi mehnatsiz kun kechiruvchilarga, tovlamachilarga Amir Temur chiqargan qonun mutlaq to`siq qo`ya olgan edi. Poraxo`rlik, ishsizlik mamlakatda butunlay barham topdi. Viloyat, tuman hokimlariga shunday ko`rsatmalar berildiki, hech bir inson ishsiz qolmadi. Agar gado kasal bo`lsa, uni davolabo`z kunini ko`radigan biror mehnat turi bilan ta`minlansin, dehqonning ulovi bo`lmasa, ulov, omoch, urug`lik va boshqa zarur yordamlar berilsin, savdo qilmoqchi bo`lganlarga ichki bozorga loyiq tijorat ishini yuritmoqchi bo`lsa shunga loyiq, agar savdogar tashqi bozorga layoqatli bo`lsa o`sha savdogarga mablag` bilan zarur darajada yordam bersinlar, xalq har tomonlama davlat g`amxo`rligini sezgach Amir Temur hokimiyatining xalqparvarligini qalban his qilib, uning atrofida mustahkam qoyadek jipslashdilar.

Sohibqiron Amir Temur o`z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi., unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo`lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta`minlash nazarda tutilgan edi. Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur`oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo`lgan. Payg`ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo`lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo`shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo`shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo`shin tuzishga, jang paytida qo`shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo`llashga, mavjud to`siq va g`ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo`shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo`lib qo`shinga otsochar qurol – to`pni olib kirgan. Tog`li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo`linmalar tashkil qilingan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo`shinida ayollardan iborat bo`linmalar bo`lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko`rsatgan. Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo`larlik sabab bor edi. Bu sabablar – o`z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanih, karvon yo`llarini turli yo`l-to`sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo`ysunmaganlarni itoat ettirish, o`zining siyosiy ta`sirini kengaytirishdan iborat bo`lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin.

Amir Temur yordamida **To`xtamish Oltin O`rda** taxtini egallaydi. Keyinchalik To`xtamish xoinlik yo`liga kiradi. U Amir Temurga qarshi ochiqdan ochiq kurashga o`tadi. Natijada Amir Temur To`xtamishga qarshi uch marta qo`shin tortishga majbur

bo`ladi. So`nggi shiddatli jang 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo`yida sodir bo`ladi. Jangda Amir Temur qo`shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o`qqa tutish usulini qo`lladi. O`q va qilich zarbiga chiday olmagan To`xtamish qo`shinining safi buzilib, orqaga chekindi va tarqalib ketdi. To`xtamish sanoqligina askari bilan qochib chnagalzorga kirdi va ta`qib etib kelayotgan askarlardan bekindi.

Rossiya tarixchilari B.D.Grekov va A.Y.Yakubovskiylarning ta`kidlashicha, Amir Temurning To`xtamish ustidan qozongan g`alabasi faqat O`rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yining 27-noyabrida 200 ming qo`shin bilan Samarqandda Xitoyga qarshi yurishga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to`satdan vafot etib qolishi (**1405-yil 18-fevral**) tufayli amalga oshmay qoldi.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san`ati va davlat boshqarish uslubiga bag`ishlangan maxsus asar yaratilib, u “Temur tuzuklari” nomi ostida shuhrat topadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari faoliyatining tartibi – tutumi va vazifalari, vazir va qo`shin boshliqlarini tayinlash tartiblari belgilab berilgan. Amir Temurning “... davlat ishlarining to`qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilichbilan amalga oshirdim”, “Kuch – adolatdadur” degan so`zlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan guvohlik beradi.

Sohibqiron Amir Temur mashhur davlar arbobi, mohir sarkarda sifatida O`zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o`rin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bir qatorda “Sohibi jahon” hamda “Sohibi adl”- “Adolat sohibi” nomlari bilan ulug`lanadi. Xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yil O`zbekistonda “Amir Temur yili” deb e`lon qilindi. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng O`zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov sa`y-harakatibilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o`rni o`z joyiga qo`yila boshlandi. O`zbekistonda uning faoliyatini o`rganishga va uni ommalashtirishga keng yo`l ochildi. Amir Temurning nomi O`zbekistonda abadiylashtirildi. Ko`plab shahar va qishloqlardagi shohko`chalar, maydonlar, jamoa xo`jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqalar uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o`rnatildi. 1995-yilda “Xalqaro Amir Temur jamg`armasi” tashkil etildi. 1996-yilda Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi, “Amir Temur” ordeni ta`sis etildi. 2017-yil 30-iyunda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Kamolat” yoshlar ijtimoiy harakatining IV

qurultoyida soʻzlagan nutqi davomida yoshlarga harbiy taʼlim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga “Temurbeklar maktabi” deb nom berish taklifini ilgari surdi va bu taklif yoshlar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Amir Temurning diplomatiyasining asosiy xususiyati Sharq madaniyati uygʻunlashganidir. Undagi har bir harakat millatning anʼana, manfaat va qadriyatlariga binoan amalga oshirilgan. Hozirgi Sharq mamlakatlarida amalga oshirilayotgan diplomatic munosabatlarining Amir Temur diplomatoyasi bilan oʻxshashligini bilish mumkin. Har kuni gullab-yashnayotgan mustaqil Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar mamlakatimizning ertangi kuniga davlat boshqaruvi sohasidagi ishonchini yanada mustahkamlaydi, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqurlashtiradi va amalda buyuk ajdodlarimiz tajribasidan samarali foydalanadi. Bu xalqimizning kelajagi uchun adolatli turmush tarzini yaratishga qaratilgan saʼy-harakatlarning natijasidir. Shunday qilib, Sohirqiron Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy sohada oʻziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Berezikov Y. Buyuk Temur: roman-badia. – Toshkent 1996.
- 2.Azamat ZiyO Oʻzbek davlatchiligi tarixi Toshkent sharq nashriyoti 2001-yil.
- 3.Amir Temur harbiy yurishlari Xamidulla Dadaboyev “Yozuvchilar nashriyoti” 1996-yil.
- 4.Muhammadjonov A. 7-sinf Oʻzbekiston tarixi darsligi Toshkent-2017.